

O‘ZBEKISTONDA MONOPOLIYAGA QARSHI KOMPLAYENS TIZIMI: HUQUQIY ASOSLAR, INSTITUTSIONAL MEXANIZM VA SAMARADORLIK MUAMMOLARI

Doniyor Abduazizov

Toshkent davlat yuridik universiteti
Qo‘shma ta‘lim dasturlari bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya

Darhaqiqat, yangi tahrirdagi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunda bir qator yangi institutlar joriy etilgan bo‘lib, mazkur maqolaning asosiy mavzusi monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tahlil qilishdan iborat. Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi raqobat siyosatidagi yangi huquqiy institut hisoblanadi. 2023-yilgi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 9-moddasiga muvofiq, ushbu tizim faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiqligini ta‘minlash, qonunbuzarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar hamda boshqa tegishli choralar majmuini joriy etishni nazarda tutadi. Ushbu tizimning normativ-huquqiy asosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi 6019-sonli “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2021-yil 2-martdagi 114-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan Vazirlar Mahkamasining “Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: raqobat huquqi, monopoliyaga qarshi komplayens tizimi, vakolatli shaxs, davlat organlari, yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlar, yuridik shaxslar birlashmalari va boshqalar.

Kirish

O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi va iqtisodiyotga davlat aralashuvining bosqichma-bosqich qisqartirilishi natijasida iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biri hisoblangan raqobat huquqi ham izchil takomillashib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, yangi nashrda qabul qilingan “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun mamlakatda amalga oshirilayotgan ushbu islohotlarning yaqqol namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Toshkent davlat yuridik universiteti Tadbirkorlik va korporativ huquq sho‘basi dotsenti Husain Radjabov mazkur Qonunda quyidagi ijobiy yangiliklarni qayd etadi:

1. Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi davlat organlarida, yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlarda hamda yuridik shaxslar birlashmalarida majburiy tartibda joriy etilmoqda;
2. Ustun mavqeni e‘tirof etish uchun bozor ulushi chegarasi 50 foizdan 40 foizgacha pasaytirildi hamda ushbu holatni aniqlashning yangi mezonlari joriy etildi;
3. Tabiiy monopoliya subyektlari ham ustun mavqega ega bo‘lgan subyektlar toifasiga kiritildi;
4. Ustun muzokara kuchi instituti joriy etildi. Unga ko‘ra, bozorda ustun mavqega ega bo‘lmagan, biroq shartnomaviy munosabatlarda kuchli tomon hisoblangan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan suiiste‘mol holatlari ham huquqiy tartibga solinishi mumkin (bunda Yaponiya tajribasi misol bo‘la oladi);
5. Kartel kelishuvlaridan tashqari, “o‘zaro kelishuvsiz muvofiqlashtirilgan harakatlar” ham raqobatga qarshi harakatlar sifatida belgilandi. Mazkur qoidaga ko‘ra, ayrim holatlarda xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida oldindan kelishuv bo‘lmagan, biroq tashqi ta‘sir yoki iqtisodiy asos mavjud bo‘lmagan parallel xatti-harakatlar ham raqobatni cheklovchi harakat sifatida baholanishi mumkin;

6. Intellektual mulk huquqlarining buzilishi bilan bog'liq holatlar insofsiz raqobat tushunchasi doirasidan chiqarildi;
7. Davlat yordamini ko'rsatishda uning raqobat muhitiga ta'sirini baholash bo'yicha huquqiy ekspertiza o'tkazish majburiy etib belgilandi. Unga muvofiq, soliq va bojxona imtiyozlari, subsidiyalar, grantlar, davlat kafolatlari, imtiyozli kreditlar, mutlaq huquqlar, davlat mulkini imtiyozli narxlarda sotish yoki ijaraga berish, yer va yer osti boyliklaridan imtiyozli shartlarda foydalanish huquqi hamda boshqa preferensiya va afzalliklar davlat iqtisodiy subyektlariga beriladi. Davlat yordamini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari endilikda Raqobat qo'mitasiga xulosa olish uchun yuboriladi va ushbu xulosani ko'rib chiqish ham majburiy hisoblanadi.

Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi: huquqiy asoslari

Darhaqiqat, yangi tahrirdagi "Raqobat to'g'risida"gi Qonunda bir qator yangi institutlar nazarda tutilgan bo'lib, mazkur maqolaning asosiy mavzusi Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tahlil qilishdan iborat. Ushbu tizim raqobat siyosati doirasida joriy etilayotgan ichki chora-tadbirlarning yangi institutsional shakli hisoblanadi. "Raqobat to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasiga muvofiq, Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining raqobat to'g'risidagi qonunchilikka muvofiqligini ta'minlash, qonunbuzarliklar xavfini aniqlash hamda ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va protseduralar majmuini o'z ichiga oladi.

Mazkur tizimning joriy etilishi faqat normativ-huquqiy hujjatlar bilan cheklanib qolmasdan, balki davlat siyosati darajasida ham qat'iy qo'llab-quvvatlanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning xalqqa qilgan murojaatnomasida davlat boshqaruvi va yirik iqtisodiy subyektlarda komplayens institutini kuchaytirish zaruriyati alohida ta'kidlangan. Prezident nutqida barcha idoralarda komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazoratga mas'ul bo'lgan rahbar o'rinbosari lavozimini joriy etish, shuningdek, Hisob palatasi vakillari faoliyatini tizimli ravishda yo'lga qo'yish orqali byudjet mablag'larining talon-toroj qilinishi va mansabni suiiste'mol qilish holatlarining oldini olishga qaratilgan ta'sirchan nazorat mexanizmlarini shakllantirish vazifasi qo'yilgan.

Prezident tomonidan "davlatning har bir so'm mablag'i va resursi bo'yicha shaxsiy javobgarlik kuchaytirilishi" alohida qayd etilishi Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining mazmunan faqat maslahat beruvchi yoki deklarativ mexanizm emas, balki real javobgarlikka asoslangan majburiy boshqaruv vositasi ekanini ko'rsatadi. Shu ma'noda, "lavozimim yoki unvonim bor" degan asosda javobgarlikdan chetda qolish mumkin emasligi haqidagi qat'iy siyosiy pozitsiya komplayens institutining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Prezident murojaatnomasida komplayens tizimi barcha sohalarni – ichki ishlar, prokuratura, soliq, bojxona, moliya, bank tizimi, yirik davlat kompaniyalari, vazirliklar va mahalliy ijro hokimiyati organlarini qamrab olishi, ya'ni birorta idora yoki tashkilot nazoratdan chetda qolmasligi alohida urg'u bilan ta'kidlangan. Bu holat Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining universal va majburiy xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, Prezident tomonidan komplayens xizmatlari faoliyatiga to'sqinlik qilgan shaxslar korrupsiyaga sherik sifatida baholanishi va ularga nisbatan tegishli javobgarlik choralarining qo'llanilishi qayd etilgan. Bu yondashuv Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining mustaqilligini va institutsional himoyasini ta'minlashga qaratilgan muhim siyosiy-huquqiy kafolat sifatida namoyon bo'ladi. Prezident Administratsiyasi huzuridagi Komplayens xizmati orqali mazkur tizimning barcha davlat idoralari va tashkilotlarida joriy etilishi hamda poraxo'rlik va suiiste'molchilik bilan bog'liq har

bir holat yuzasidan bevosita Prezidentga axborot kiritib borilishi komplayens mexanizmlarining markazlashtirilgan va qat'iy nazorat ostida amalga oshirilishini ko'rsatadi.¹

Mazkur siyosiy va institutsional yondashuvlar Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi 6019-sonli "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda 2021-yil 2-martdagi 114-son qarorga muvofiq qabul qilingan Vazirlar Mahkamasining "Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori orqali normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlanganini ko'rsatadi.

Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining maqsadi, vazifalari va qo'llanish doirasi

Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi 6019-sonli "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishi xavfini oldini olish hamda korporativ biznes yuritish standartlarini joriy etishga qaratilgan samarali tizimni shakllantirishdan iborat.

Vazirlar Mahkamasining "Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining quyidagi asosiy vazifalari va bosqichlari belgilangan:

a) Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi raqobat to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash, huquqbuzarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar hamda amaliy mexanizmlar majmuini o'z ichiga oladi;

b) Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishi bilan bog'liq ehtimoliy xavflarni aniqlash, baholash va ularni boshqarish;
- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligini ta'minlash va monitoring qilish;
- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va tadbirkorlik subyektlari faoliyatida raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarining buzilishining, shuningdek, ularning rahbarlari tomonidan xizmat vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga qarshi xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish;
- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarda Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining samaradorligini baholash va uni ta'minlash;
- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar xodimlarini raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablarini buzilishining oldini olishga qaratilgan tarzda o'qitish, ularning ushbu yo'nalishdagi bilim va malakasini muntazam ravishda oshirish, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari yuzasidan xulosalar ishlab chiqish.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi 26.12.2025.

Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish va uning barqaror faoliyat yuritishi tashkilotlar hamda korxonalarda turli darajalardagi tarkibiy bo'linmalar va vakolatli shaxslar tomonidan ta'minlanadi. Xususan:

- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarda Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish maqsadida tashkilotning tashkiliy tuzilmasi, xodimlar soni va faoliyat turi hisobga olingan holda vakolatli shaxs (yoki tegishli bo'linma) tayinlanadi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarda Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish, uning faoliyatini ta'minlash va monitoring qilish vazifalari ichki audit xizmatiga yuklatilishi mumkin;
- davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik yurituvchi subyektlarda Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish hamda uning samaradorligini baholash tegishli davlat boshqaruvi organlari rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish hokim tomonidan amalga oshiriladi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda esa Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish ijro etuvchi organ yoki kuzatuv kengashi tomonidan ta'minlanadi.

Xorijiy tajriba

Monopoliyaga qarshi komplayens korporativ boshqaruv tizimida risklarni boshqarish va huquqiy muvofiqlikni ta'minlashga qaratilgan siyosat bo'lib, u ko'plab xorijiy davlatlarda tizimli ravishda tashkil etilgan. Mazkur maqolada xorijiy tajriba sifatida Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ga a'zo davlatlar amaliyoti tahlil qilinadi.

Xususan, Fransiya Raqobat organi 2021-yilda professional tashkilotlarga o'z faoliyatida raqobat bilan bog'liq xavflarni aniqlash, qo'llanilishi mumkin bo'lgan sanksiyalar doirasini tushuntirish, shuningdek, raqobatni rivojlantirishga qaratilgan funksiyalarni — jumladan, raqobat qoidalarini amalga oshirish va a'zolar sonini ko'paytirishni — hisobga olgan holda komplayens bo'yicha qo'llanmalar ishlab chiqishda ko'maklashgan.²

Xalqaro tajribaning o'ziga xos jihatlaridan biri Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish mexanizmlarining xilma-xilligidir. OECDga a'zo ko'plab davlatlar tajribasi turli nazariy yondashuvlarga asoslanadi. Asosiy farq, xususan, qonunbuzarlik aniqlangan taqdirda, ushbu huquqbuzarlik samarali tarzda bartaraf etilgan hollarda jarimalarni kamaytirish yoki boshqa imtiyozlar taqdim etish imkonini beruvchi mexanizmlarning mavjudligida namoyon bo'ladi.

OECD tadqiqotlariga ko'ra, so'nggi o'n yil davomida ushbu yo'nalishda quyidagi tendensiyalar shakllangan:

Davr	2011-yil	2021-yil
Imtiyoz beruvchi davlatlar	Avstraliya, Daniya, Koreya, Meksika, Yangi Zelandiya, Norvegiya, Buyuk Britaniya, AQSh	Avstraliya, Braziliya, Kanada, Chili, Germaniya, Gonkong, Xitoy, Vengriya, Hindiston, Italiya, Yaponiya, Malayziya, Niderlandiya, Peru, Ruminiya, Singapur, Ispaniya, Shveysariya, Buyuk Britaniya, AQSh
Imtiyoz bermaydigan davlatlar	Kanada, Fransiya, Germaniya, Yevropa Ittifoqi, Bolgariya, Ruminiya, Rossiya Federatsiyasi	Bolgariya, Yevropa Komissiyasi, Finlyandiya, Fransiya, Gretsiya, Koreya, Meksika, Niderlandiya, Shvetsiya, Turkiya

² OECD (2021), Competition Compliance Programmes, OECD Competition Committee Discussion Paper, <http://oe.cd/ccp>

Tashkilot tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Monopoliyaga qarshi komplayens dasturlarini joriy etish va rivojlantirish tendensiyasi turli geografik hududlarda, xususan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari (ASEAN), Lotin Amerikasi, Yevropa Ittifoqi hamda Shimoliy Amerikada tobora kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur hududlarda amaldagi yo'riqnomalarda belgilangan mezonlar bajarilgan taqdirda jarimalarni kamaytirish imkoniyati nazarda tutilgan bo'lib, shuningdek, yengillik (leniency) dasturlarini joriy etish ham ko'zda tutiladi.

Monopoliyaga qarshi komplayens dasturlarini qo'llash natijasida jarimalar kamaytirilgan holatlar bo'yicha xalqaro miqyosda yagona statistik ma'lumotlar mavjud emas. Amalda amal qilayotgan yengillik dasturlari doirasida chegirmalar berilishi nazariy jihatdan mumkin bo'lsa-da, hozirga qadar Ispaniya, Kanada va AQShda bunday masalalar bo'yicha sud amaliyoti qayd etilmagan. Biroq Yevropa Ittifoqida vaziyat boshqacha shakllangan. Xususan, Italiyada 2015-yildan 2021-yil mart oyigacha bo'lgan davrda olib borilgan 18 ta antimonopol tergov ishining 13 tasida sud tomonidan jarimalar kamaytirilgan. Berilgan chegirmalar miqdori 5 foizdan 15 foizgacha bo'lgan. Bunday chegirmalardan foydalanish uchun murojaatchi rasmiy tergov boshlanishidan oldin huquqbuzarlik holati haqida Italiya Raqobat organiga (AGCM) xabar berishi lozim.

Avstraliyada esa sudlar mavjud Monopoliyaga qarshi komplayens dasturlarini huquqbuzarlik uchun sanksiyalarni belgilashda muhim omil sifatida e'tirof etadi. 2007-yildan buyon ko'rib chiqilgan ishlarning taxminan 60 foizida komplayens dasturlarining mavjudligi jazoni yengillashtiruvchi omil sifatida inobatga olingan.

Yaponiyaning "Monopoliyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni (AMA) Monopoliyaga qarshi komplayens dasturini korxonalar miqyosida yagona va muvofiqlashtirilgan tarzda joriy etish hamda amalda ishlashini ta'minlash uchun dastur mazmunini hujjatlashtirish (aniqlik) hamda ushbu hujjatlarga zarur hollarda oson va tezkor kirish imkoniyatini yaratish (mavjudlik) muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda hujjatlarni korxonaning ichki axborot tarmog'ida (intranet va shunga o'xshash tizimlarda) markazlashtirilgan holda joylashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'tkazilgan so'rovlar natijasida aniqlangan muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz holatlarni inobatga olgan holda, AMA talablariga rioya etish samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlar va e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlar samarali deb topilgan.³

(1) Monopoliyaga qarshi komplayens dasturining umumiy modeli

a) Yuqori boshqaruv organlarining majburiyati va tashabbusi

Monopoliyaga qarshi komplayens samaradorligini ta'minlashdagi eng muhim omil korxonaning yuqori boshqaruv organlari tomonidan ushbu tizimga sodiqlikning ochiq ifodalanishi hamda tashabbusni bevosita o'z zimmasiga olishidir. Ilgari AMA talablariga zid xatti-harakatlar sodir etilganligi sababli faoliyatni to'xtatish yoki qo'shimcha yig'im (jarima) to'lash to'g'risida buyruqlar chiqarilgan kompaniyalar faoliyati tahlili quyidagi holatlarni ko'rsatgan:

- AMA talablarining buzilishiga yo'l qo'yilishi yoki bunday buzilishlarning dastlabki bosqichda to'xtatilmaganligi ayrim hollarda yuqori boshqaruv tomonidan "jamiyat tomonidan ma'qullanmaydigan biznes yuritish mumkin emasligi" haqidagi aniq va qat'iy siyosiy pozitsiyaning xodimlarga yetarli darajada yetkazilmaganligi bilan izohlangan;

³ Survey on Corporate Compliance Efforts with the Antimonopoly Act (Summary). Japan Fair Trade Commission. November 28, 2012.

• AMA talablariga zid bo'lishi ehtimoli mavjud xatti-harakatlar yuzasidan joyida tekshiruv o'tkazilgan kompaniyada prezident tomonidan xodimlarga ichki tekshiruvda hamkorlik qilishga chaqiruvchi murojaat e'lon qilingan va natijada boshqa mahsulot bilan bog'liq AMAga zid holat aniqlanib, kompaniya yengillik (leniency) dasturidan foydalanish imkoniga ega bo'lgan.

Xodimlarga yuqori boshqaruvning Monopoliyaga qarshi komplayensga alohida e'tibor qaratayotganini yetkazish uchun aniq, ravshan va takroriy tarzda bevosita murojaatlar amalga oshirilishi muhim hisoblanadi.

b) Korxonaning real holatiga mos Monopoliyaga qarshi komplayens dasturini shakllantirish

Korxonaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib AMA talablarini buzish xavflarini aniqlash alohida korxonalar uchun AMA talablarini buzish bilan bog'liq aniq xavflar ularning faoliyat turi, bozor muhiti va boshqa omillarga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Shu sababli, namunaviy komplayens dasturi shaklida taklif etilgan yagona va standart chora-tadbirlarni o'zgartirishsiz qo'llash korxonaning real ehtiyojlariga mos keladigan samarali Monopoliyaga qarshi komplayens dasturini yaratishga imkon bermaydi.

Amaliyotda shunday holat kuzatilganki, AMAga zid xatti-harakatlar sababli jarimaga tortilgan korxonalar butun kompaniya bo'ylab bir xil treninglar o'tkazilishi huquqbuzarliklarning oldini olish uchun yetarli emasligini aniqlagan. Natijada, kompaniya mahsulotlar funksiyasi va biznes odatlaridan kelib chiqib faoliyat bo'linmalarini alohida komplayens guruhlariga ajratgan va har bir bo'linmaning ma'muriy bo'limiga AMA komplayensini ta'minlashda markaziy rol yuklagan.

Samarali Monopoliyaga qarshi komplayens dasturini shakllantirishda aynan korxonaning o'ziga xos AMA bilan bog'liq xavflariga e'tibor qaratish va ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni rejalashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xavflarni aniqlash jarayonida korxonalar o'zining ichki omillari — faoliyat hajmi, biznes mazmuni, tashkiliy madaniyat — hamda tashqi omillar, jumladan tarmoq holati, bozor vaziyati va amaldagi huquqiy tartibga solish tizimini kompleks tarzda tahlil qilishi lozim.

Quyidagi holatlar bunga misol bo'la oladi:

• umumiy iste'mol mahsulotlari bilan shug'ullanuvchi bo'limlarda kartel kelishuvlari ehtimoli yuqori ekanini inobatga olib, aynan ushbu bo'limlarga qaratilgan ichki tekshiruvlar o'tkazilishi natijasida AMAga zid holat aniqlanib, kompaniya yengillik dasturidan foydalangan;

• muayyan bo'lim tomonidan sodir etilgan AMAga zid xatti-harakatlar ushbu bo'lim faoliyati yetarli darajada nazorat qilinmaganligi va xodimlarning uzoq vaqt davomida o'sha bo'limda ishlaganligi bilan bog'liqligi aniqlangan, chunki sotuv hajmi kichik bo'lgani sababli bo'lim kompaniya ichida muhim hisoblanmagan.

c) AMA bo'yicha huquqiy va komplayens bo'linmalarini tashkil etish hamda ijro mexanizmlari

So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, deyarli barcha tekshirilgan korxonalarda huquqiy masalalar va komplayens uchun mas'ul bo'linmalar mavjud. Monopoliyaga qarshi komplayens bo'yicha chora-tadbirlarning samaradorligini ta'minlash uchun kompaniyada huquqiy va komplayens bo'limlariga ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish imkonini beruvchi puxta va aniq mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur.

Mazkur ma'lumotlar Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining jahon tajribasida qanday joriy etilayotganini ko'rsatadi. Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, ko'plab davlatlar Monopoliyaga qarshi

komplayens tizimi korporativ boshqaruvda hamda raqobat to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlashda muhim rol o'ynashini alohida e'tirof etadi. Shuningdek, kompaniyalar ushbu tizimni joriy etish orqali ehtimoliy muammolarni oldindan aniqlash va xavflarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Natijada, bunday yondashuv barcha manfaatdor tomonlar uchun o'zaro manfaatli ("win-win") munosabatni shakllantiradi.

Tizim amalda samaralimi?

Tizimni tashkil etish tartibiga nazar tashlanganda, uning ichki boshqaruv mexanizmlari qoidalarni belgilash va ularni boshqarish masalasida to'liq ravishda tashkilot yoki korxonah rahbariga bo'ysundirilgani ko'rinadi. Bu holat Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining haqiqiy samaradorligi borasida qator shubhalarni keltirib chiqaradi. Vazirlar Mahkamasining qarorida shunday tartib belgilanganki, vakolatli shaxs yoki tegishli bo'linma bevosita davlat boshqaruvi organi rahbariga, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar davlat boshqaruvi organlari rahbarlariga, hududiy va tuman darajasidagi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlariga, xo'jalik yurituvchi subyektning ijro etuvchi organiga yoki (agar mavjud bo'lsa) kuzatuv kengashiga bo'ysunadi va ularga hisobdor hisoblanadi.

Bir tomondan, bunday bo'ysunuv va hisobdorlik korporativ birlik va yaxlitlikni ta'minlaydi, degan yondashuv mavjud. Boshqa tomondan esa, vakolatli shaxs yoki vakolatli bo'linmaning faoliyat erkinligining cheklanishi oxir-oqibat Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining samaradorligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqidagi qarashlar ham ilgari surilmoqda.

Bu yerda Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasining samaradorlikni baholashdagi roliga e'tibor qaratisa, qarorga muvofiq ushbu qo'mita Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha natijalarni baholash vakolatiga ega ekanini ko'rish mumkin. Albatta, bu holat tizim samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Biroq mazkur samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha ichki hisobotlarning tashkilot rahbari tomonidan qanday nazorat qilinishi va ushbu jarayonda subyektiv manfaatlar mavjud emasligini ta'minlash bo'yicha aniq mexanizmlar nazarda tutilmagan.

Shu sababli, "ichki va tashqi mustaqil nazorat hamda hisobdorlik mexanizmlariga ega bo'lmagan Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi haqiqatan ham samarali bo'la oladimi?" degan mantiqiy savol yuzaga keladi. Korporativ avtonomiyaning ta'minlash orqali bunday tizimlarning muvaffaqiyati va ishonchliligi yanada yuqori bo'lishi mumkin.⁴

Shuningdek, tizim samaradorligini ta'minlashda nafaqat institutsional mustaqillik, balki moliyaviy avtonomiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Amaldagi holatda Monopoliyaga qarshi komplayens bo'yicha vakolatli shaxs yoki tegishli bo'linma moliyalashtirish masalasida to'liq ravishda tashkilotga bog'liq hisoblanadi. Bu holat tizim samaradorligi nuqtayi nazaridan yanada jiddiy xavf sifatida baholanishi mumkin. Vakolatli shaxs yoki tegishli bo'linma faoliyatining bevosita rahbarga bog'liqligi ma'lum ma'noda nazoratning mustaqilligini va faoliyat erkinligini cheklaydi. Natijada, tizim samaradorligi subyektiv omillarga bog'liq bo'lib qolish xavfi yuzaga keladi.

Mazkur tizimning qonunchilikda belgilanganidek davlat organlari, tashkilotlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida qay darajada joriy etilganini aniqlash maqsadida bir qator organlar, tashkilotlar

⁴ Anvarovich, Saidov Ibrokhim. "Corporate social responsibility under the UK Corporate Governance system." Eurasian Research Bulletin 21 (2023): 120-125.

va korxonalarining rasmiy veb-saytlari o'rganildi. Asosiy e'tibor Nizomning 5-ilovasiga qaratildi, unda 2021–2024-yillarda tovar yoki moliya bozorida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, shuningdek, so'nggi uch yil davomida tovarlarni sotishdan o'rtacha yillik tushumi 30 milliard so'mdan ortiq bo'lgan yirik korporativ buyurtmachilar uchun Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish nazarda tutilgan.

Mazkur tahlil natijasida "O'ztransgaz" AJ⁵, "Navoiyazot" AJ⁶ va "UzAuto Motors" AJ⁷ kabi ayrim yirik kompaniyalar faoliyatida tizimni joriy etish borasida ijobiy o'zgarishlar aniqlangan bo'lsa-da, qarorda ko'rsatilgan ayrim boshqa kompaniyalarda ushbu tizim hali to'liq shakllantirilmagani ma'lum bo'ldi. Albatta, belgilangan muddat doirasida ushbu korxonalarda ham Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy etilishi shubhasiz. Biroq mazkur tashkilotlarning bozor ulushi va iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasini inobatga olgan holda, tizimga imkon qadar erta o'tishi iqtisodiyotda raqobatni rivojlantirish nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq bo'lur edi.

O'zbekistonda raqobat siyosati faqat xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini emas, balki davlat organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini ham nazorat qilishni nazarda tutadi. Amaliyotda davlat organlari va mahalliy hokimiyatlar tomonidan raqobat siyosatiga zid bo'lgan xatti-harakatlar tez-tez uchrab turadi. Shu bois, Prezidentning tegishli farmoniga muvofiq, bunday holatlarning oldini olish maqsadida 2021-yil 1-yanvardan boshlab davlat organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimida ham Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish belgilangan.

Shu munosabat bilan Raqobat qo'mitasining 2022-yilda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobotida 33 ta mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi va 22 ta davlat boshqaruvi organida Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi joriy etilgani haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ayrim iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlardagi mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining rasmiy veb-saytlari o'rganilganda esa, Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish yoki aniq komplayens chora-tadbirlari bo'yicha ochiq hisobotlar mavjud emasligi aniqlandi. Statistik ma'lumotlarning e'lon qilinmaganligi ushbu ma'lumotlarning ichki audit hujjatlarida aks ettirilgani yoki mazkur organlar faoliyatida tizimni amalga oshirish dasturiga hali to'liq kiritilmaganligi bilan izohlanishi mumkin. Bunday masalalar alohida ilmiy maqola doirasida chuqurroq tahlil etilishi maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Xulosa

Shuni e'tirof etish lozimki, ayniqsa ushbu sohada tajribasi nisbatan kam bo'lgan davlatlarda mukammal va samarali Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini qisqa muddatda shakllantirish oson emas. Biroq tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni hisobga olish, avvalo, siyosiy va iqtisodiy irodaning mavjudligiga bog'liq ekani yaqqol ko'rinadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, adolatli raqobat iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi va bu jarayonda Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining o'rni beqiyosdir. Mazkur tajriba O'zbekiston kabi davlatlarni yanada mukammal va samarali Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini shakllantirish yo'lida qat'iy qadamlar tashlashga undaydi.

⁵ Quyidagi havola orqali topishingiz mumkin: <https://utg.uz/uz/about/komplaens-nazorati/>

⁶ Quyidagi havola orqali topishingiz mumkin: <https://navoiyazot.uz/ru/menu/antimonopolnyj-komplaens>

⁷ Quyidagi havola orqali topishingiz mumkin: <https://uzautomotors.com/companies/compliance>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Normativ-huquqiy hujjatlar

1.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi 114-sonli "Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

2. Ilmiy maqolalar

2.1. Saidov Ibrokhim Anvarovich. "Buyuk Britaniyada korporativ boshqaruv tizimida korporativ ijtimoiy mas'uliyat" // Eurasian Research Bulletin. — 2023. — 21-son.

3. Hisobotlar

3.1. Survey on Corporate Compliance Efforts with the Antimonopoly Act (Summary). Japan Fair Trade Commission. — 28 November 2012.

3.2. OECD (2021). Competition Compliance Programmes. OECD Competition Committee. Manba: <http://oe.cd/ccp>

4. Onlayn manbalar

4.1. O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi rasmiy veb-sayti (hisobotlar bo'limi):

<https://antimon.gov.uz/qomita-hisobotlari/>

4.2. "O'ztransgaz" AJ rasmiy veb-sayti (komplayens nazorati bo'limi):

<https://utg.uz/uz/about/komplaens-nazorati/>

4.3. "Navoiyazot" AJ rasmiy veb-sayti (antimonopol komplayens bo'limi):

<https://navoiyazot.uz/ru/menu/antimonopolnyj-komplaens>

4.4. "UzAuto Motors" AJ rasmiy veb-sayti (compliance bo'limi):

<https://uzautomotors.com/companies/compliance>